



XORAZM VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI (2020- yil 1- yanvar holatiga)




Maktabgacha ta'lim kichik yoshdagi bolalarning bilim olishi, jismoniy, ijtimoiy va his-tuyg'ularining rivojlanishishi uchun kompleks yondashuv asosida o'qitish va ta'lim berish faoliyatini, shuningdek kichik yoshdagi bolalarni o'quv faoliyatiga va boshlang'ich ta'lim dasturlari bo'yicha o'qishga kirish uchun tayyorlash maqsadida ularni oila sharoitidan ajralgan holda tashkillashtirilgan ta'lim berish bilan tanishtirishni nazarda tutadi.




Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda
(2020- yil 1- yanvar holatiga)



Shahar joylarida




Qishloq joylarida




2020- yil 1- yanvar holatiga ko'ra Xorazm viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 360 tani tashkil etib, ularning soni o'tgan yilga nisbatan 37 taga oshgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar soni 2279 taga tashkil etib ya'ni o'tgan yilga nisbatan 538 guruhga oshgan. O'rinlar soni esa 51579 tani tashkil etgan (o'tgan yilga nisbatan 15,3 foizga oshgan).

2020- yil 1- yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar soni, kishi



2020- yil 1- yanvar holatiga ko'ra Xorazm viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jami 55,2 ming nafar tarbiyalanuvchilari mavjud bo'lib, ulardan 28,7 ming nafari (52%) o'g'il bolalar, 26,5 ming nafari (48%) qiz bolalarni tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilari jinsi bo'yicha, %da
(2020-yil 1-yanvar holatiga)





**3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi, % da
(2020-yil 1-yanvar holatiga)**

	Jami	Shahar joylarida	Qishloq joylarida
Xorazm viloyati	36,7	55,8	29,3
shaharlar:			
Urganch	79,9	79,9	-
Xiva	50,6	50,6	-
tumanlar:			
Bog'ot	21,9	71,1	12,3
Gurlan	42,7	36,6	46,1
Qo'shko'pir	39,3	60,4	34,9
Urganch	27,8	15,9	29,7
Hazorasp	21,3	67,0	13,6
Xonqa	47,5	43,1	49,5
Xiva	23,6	-	23,6
Shovot	34,0	53,0	30,1
Yangiariq	32,2	37,1	30,8
Yangibozor	48,5	90,0	43,5

2020- yilning 1- yanvar holatiga 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahri (79,9%) va Xiva shahrida (50,6%) qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Hazorasp (21,3%) va Bog'ot tumanlarida (21,9%) to'g'ri kelgan.



**Hududlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog
xodimlar soni , kishi
(yil oxiriga)**

	2018- yil	2019- yil
Xorazm viloyati	4134	4859
shaharlar:		
Urganch	832	837
Xiva	259	322
tumanlar:		
Bog'ot	203	253
Gurlan	377	421
Qo'shko'pir	338	400
Urganch	303	381
Hazorasp	277	311
Xonqa	626	733
Xiva	174	242
Shovot	335	449
Yangiariq	204	258
Yangibozor	206	252

2020- yilning 1- yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 4859 nafarni tashkil etib, ulardan 26,2 %i oliy ma'lumotli, 73,8 %i o'rta maxsus ma'lumotlilarni tashkil etadi.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
tel: (62) 224-65-21